	Oliy ta'limda mustaqil ishlarni tashkillashtirishda nostandart testlardan foydalanishning samarali metodlari va metodik tavsiyalar..... 775 Nurnazarova Gavharoy Baxtiyor qizi
	Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida oila obrazining kognitiv va emotsional komponentlari qiyosiy tahlili 780 Toshtemirova Nigora Ibrohimovna
	Boshlang'ich sinf "Tarbiya" darsligida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari g'oyalari integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari 784 Tovoshova Ozoda Akmal qizi
	Noto'liq oila farzandlarida emotsional-irodaviy sohani rivojlantirish orqali ijtimoiy deadaptatsiyani bartaraf etish..... 789 Kaxarova Ozoda Abdimominovna
	Kelajak pedagog shaxsini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining psixologik ta'siri... 793 M. B. Pulatova
	Maktabgacha ta'lim tashkilotida inson resurslarini boshqarish tushunchasining ilmiy-nazariy tahlili 796 Maraimova Muxtabar Pulatovna
	Kredit-modul modeli asosida kreativ ta'lim muhitini yaratish omillari va imkoniyatlari..... 801 Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna



Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya modeli	805
<i>G'aniyeva Vazira Yusufvna</i>	
Xorijiy va mahalliy tajribada prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlari	809
<i>Ziyoda Urinbayeva</i>	
The Role of Tolerance in the Professional Activities of Internal Affairs Bodies	813
<i>Toshpo'latov Anvar Shokir o'g'li</i>	
O'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda sharq mutaffakirlari merosidan foydalanish	818
<i>Eshquvvatov To'lqinjon Eshquvvatovich, Buronova Durdona Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda interfaol metodlar orqali integrativ faoliyatlarni tashkil etish	822
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	826
<i>Mirzaqobilova Sarvinoz Aliqul qizi</i>	
Zamonaviy jamiyatda ekologik mediamadaniyatni shakllantirish masalalari	832
<i>Marziyayev Janabay Kalibayevich</i>	
Alisher Navoiyning "Mahlub ul-qulub" asari asosida o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish	836
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi, Ravshanova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy karyera loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish	840
<i>Djalolova Sevara Xolmurodovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar	845
<i>G'ulomova Dildora Shoirvna</i>	
Rus tilini o'qitishda grammatik kompetensiyani kommunikativ metod yordamida shakllantirish: qoidalardan jonli muloqotga o'tish metodikasi	850
<i>Arabova Muhiba Bazarovna</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik muammo va ehtiyojlari	854
<i>Axrorova Munajat Mashraf qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	858
<i>Azizjonova Asilabonu Alisher qizi</i>	
Ta'limda innovatsion yondashuvlarning pedagogik-psixologik asoslari (pedagogik otm misolida)	862
<i>Begmatova Dildora Saydaliyevna</i>	
Developing the Creativity of Primary School Students Through Art-Pedagogical Methods	866
<i>Dauletmuratova Bayramgul Makhsetbay kizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish yo'llari	871
<i>Farmanova Parvina Jamshid qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida arifmetik ko'nikmalarni mustahkamlash: zamonaviy ta'limdagi innovatsion yondashuvlar	875
<i>Izimbetova Amina</i>	
Matematika va o'yinlar nazariyasi: strategik qarorlarni modellashtirishda rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati	878
<i>Jumanazarova Shahzada</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari	881
<i>Laylo Berdiqulova Erkin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini integrativ yondashuv asosida o'stirish usullari	885
<i>Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna, Normengliyeva Sevinch Ulug'bek qizi</i>	
STEAM texnologiyasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish tamoyillari	889
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda maishiy ko'nikmalarni takomillashtirishning ilmiy nazariy asoslari	893
<i>Saydaliyeva Gavhar Burxon qizi</i>	



Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish	896
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim emotsional holatlar (injiqlik va emotsional reaktivlik)ni boshqarish.....	903
Sultonova Nurxon Anvarovna	
Teatr pedagogikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodlari	907
Tolipova Shohista Qudrat qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli	911
Turg'unova Gulzoda Botir qizi	
Farzand tarbiyasida onaning psixologik va axloqiy ta'sirining amaliy jihatlari	916
Tuxtaboyeva Durdonaxon Tulkunovna	
Ontogenezning turli bosqichlarida shaxsning axloqiy rivojlanish xususiyatlari	919
Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini metakognitiv monitoring qilish va baholashning nazariy-metodik asoslari	923
Xalikova Zaxro Mirshadmanovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyada qo'llanilishi	927
Yoqubova Gulhayo Erkin qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	931
Bilolov Inomjon O'ktamovich	
Karatening kelib chiqish tarixi	934
Isayev Saidasliddinxon Islom o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga doir usul va vositalar	937
Nishonova Kamola Shokirjon qizi, Mamadjonova Hayotxon Abduolim qizi	
Родительские установки и развитие личности	941
Кодирова Нилуфар Абдусаттор кизи	



OLIY TA'LIMDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKILLASHTIRISHDA NOSTANDART TESTLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI METODLARI VA METODIK TAVSIYALAR

Nurnazarova Gavharoy Baxtiyor qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda nostandart testlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari va samaradorligi yoritiladi. Zamonaviy ta'limda asosiy e'tibor talabani mustaqil bilim olishiga qaratilib, an'anaviy baholash usullarining ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi cheklanganligi asoslab beriladi. Nostandart test turlari – krossvord-testlar, vaziyatli (keys) testlar, zanjirli topshiriqlar hamda mantiqiy xatolarni aniqlashga yo'naltirilgan vazifalarning metodik afzalliklari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ushbu metodlarning talabalarning o'quv materialini o'zlashtirish darajasiga ta'siri qiyosiy jihatdan o'rganildi. Keltirilgan metodik tavsiyalar mustaqil ishlarni samarali tashkil etish, ularni nazorat qilish bilan birga, talabalarda fanga nisbatan barqaror motivatsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, mustaqil ish, nostandart testlar, metodik tavsiyalar, tanqidiy fikrlash, baholash mezonlari, kognitiv faollik, ta'lim samaradorligi.

Abstract: The paper examines the features and effectiveness of using non-standard tests in organizing students' independent work within the higher education system. In modern education, the emphasis is placed on students' independent learning, while the limitations of traditional assessment methods in developing creative and critical thinking are highlighted. The methodological advantages of non-standard test types, including crossword tests, case-based (situational) tasks, chain tasks, and tasks aimed at identifying logical errors, are analyzed. The study comparatively investigates the impact of these methods on students' learning outcomes. The proposed methodological recommendations contribute not only to improving the organization and control of independent work but also to fostering sustained academic motivation among students.

Key words: Higher education, independent work, non-standard tests, methodological recommendations, critical thinking, assessment criteria, cognitive activity, educational effectiveness.

Аннотация: Рассматриваются особенности и эффективность использования нестандартных тестов при организации самостоятельной работы студентов в системе высшего образования. В современных условиях акцент в обучении смещается на самостоятельное освоение знаний, при этом обосновывается ограниченность традиционных методов оценки в развитии творческого и критического мышления. Анализируются методические преимущества таких видов нестандартных тестов, как кроссворд-тесты, ситуационные (кейс) задания, цепные задания и задания, направленные на выявление логических ошибок. В ходе исследования сравнительно изучено влияние данных методов на уровень усвоения учебного материала студентами. Представленные методические рекомендации направлены не только на контроль самостоятельной работы, но и на формирование устойчивой учебной мотивации.

Ключевые слова: Высшее образование, самостоятельная работа, нестандартные тесты, методические рекомендации, критическое мышление, критерии оценки, когнитивная активность, эффективность обучения.

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim paradigmalarning takomillashuvi talaba shaxsini axborotning passiv retseptori (qabul qiluvchisi) vazifasidan bilimlarni mustaqil izlanish va tadqiq etish orqali konstruksiya qiluvchi faol subyekt darajasiga ko'tardi. Mazkur transformatsiya jarayoni nafaqat pedagogik yondashuvlarni, balki ta'lim sifatini baholash mexanizmlarini ham tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilanganidek, talabalarning mustaqil ishlariga ajratilgan soatlar ulushini oshirish hamda ularning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini baholashning innovatsion, kreativ tizimlarini joriy etish strategik ustuvor vazifa sifatida e'tirof etilgan [1, 12-b.].

Biroq, mavjud pedagogik reallik tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishlari ko'p hollarda an'anaviy referat yozish yoki reproduktiv xarakterdagi oddiy test topshiriqlarini bajarish bilan cheklanib qolmoqda. Bunday yondashuv talabani intellektual salohiyatini cheklab, uning kognitiv faollik darajasini pasaytiradi va fanga nisbatan motivatsiyaning so'nishiga olib keladi [2, 45-b.].

An'anaviy (yopiq turdagi, bir variantli to'g'ri javobga asoslangan) testlar asosan xotira mexanizmlarini va faktologik bilimlarni tekshirishga yo'naltirilgan bo'lib, ular talabani mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini to'liq qamrab ololmaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik tadqiqotlar va kognitiv psixologiya yutuqlari shuni tasdiqlaydiki, talabalarning yuqori tartibli fikrlash ko'nikmalarini, xususan, tahlil, sintez va baholash kompetensiyalarini rivojlantirishda nostandart test topshiriqlarining didaktik imkoniyatlari beqiyosdir [6, 201-b.]. Nostandart testlar talabani muammoli vaziyatga yo'naltiradi, undan nostandart yechimlar talab qiladi va o'quv materialini shunchaki eslab qolish emas, balki chuqur tushunib, uni yangi sharoitlarda qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi [3, 67-b.]. Shunga qaramay, zamonaviy oliy ta'lim amaliyotida bunday testlarni loyihalash, ularning mazmuniy validligini ta'minlash va mustaqil ishlar tarkibiga metodik jihatdan to'g'ri integratsiya qilish mexanizmlari yetarlicha nazariy va amaliy asoslab berilmagan [9, 89-b.]. Bu esa, o'z navbatida, o'quv jarayonini metodik modernizatsiya qilishni hamda nostandart test topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy asoslangan tavsiyalarini yaratishni dolzarb pedagogik muammo sifatida kun tartibiga qo'yadi.

Nostandart testlarning didaktik mohiyati va strukturaviy tasnifi. Zamonaviy oliy ta'lim mazmuni faqat bilimlar majmuasidan iborat bo'lmay, balki metakognitiv ko'nikmalarni (o'z o'rganish jarayonini boshqarish va tahlil qilish) shakllantirishga yo'naltirilgan. Talabani mustaqil ishi shunchaki darsdan tashqari vaqtni to'ldirish emas, balki intellektual tayanch vazifasini o'tashi lozim. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy testlar ko'pincha "yuzaki o'rganish"ga olib keladi, ya'ni talaba ma'lumotni faqat imtihon topshirish uchun eslab qoladi. Nostandart test topshiriqlari (masalan, vaziyatli topshiriqlar, mantiqiy xatoni topish, muqobil yechimlarni baholash) esa talabani axborotni transformatsiya qilishga majbur etadi. Bu jarayonda talaba murakkab muammoni qismlarga ajratish (dekompozitsiya), turli manbalardan olingan bilimlarni yagona mantiqiy xulosaga birlashtirish (sintez) hamda olingan natijaning to'g'riligini nazariy tamoyillar asosida tekshirish (verifikatsiya) bosqichlarini bosib o'tadi [5, 78-b.].

Nostandart testlarni mustaqil ishlar tarkibiga integratsiya qilishda ularning murakkablik darajasi Bluum taksonomiyasining yuqori pog'onalariga mos kelishi shart. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida ta'kidlanganidek, baholash tizimi talabani jazolash emas, balki rag'batlantirish va yo'naltirish funksiyasini bajarishi kerak [1, 15-b.]. Nostandart testlar orqali amalga oshiriladigan mustaqil ishlar talabada subyektiv mas'uliyatni oshiradi, akademik halollikni ta'minlaydi (tayyor javoblar bazasidan foydalanish imkoniyati cheklanadi) hamda tanqidiy fikrlashni professional kompetensiya darajasiga olib chiqadi [8, 112-b.].

Zamonaviy didaktikada nostandart test topshiriqlari shunchaki tayyor javoblar variantidan birini tanlash emas, balki talabani intellektual salohiyatini faollashtiruvchi kompleks kognitiv instrument sifatida qaraladi. Ularning mohiyati mantiqiy-strukturaviy zanjirni tiklash, mantiqiy aloqadorlik testlari orqali nomuvofiqliklarni aniqlash, situatsion-muammoli (keys-test) topshiriqlar yordamida nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash hamda divergent xarakterdagi ochiq kreativ topshiriqlar orqali talabani mustaqil fikrlashini rivojlantirish kabi konseptual yo'nalishlarda namoyon bo'ladi [2, 48-b.; 7, 38-b.; 9, 92-b.; 6, 215-b.].

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning konseptual maqsadi zamonaviy oliy ta'limning kompetensiyaviy yondashuvi doirasida talabalar mustaqil o'quv faoliyatini optimallashtirish, ularning kognitiv mustaqilligini oshirishga xizmat qiluvchi nostandart test topshiriqlarini loyihalashning ilmiy-metodik tizimini ishlab chiqish hamda ushbu didaktik vositalar tizimining ta'lim samaradorligini oshirishdagi harakatlantiruvchi kuch ekanligini empirik ma'lumotlar asosida isbotlashdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi tizimli vazifalarni hal etish ko'zda tutilgan:

- oliy ta'lim didaktikasida mustaqil ishning mohiyatini "talaba–axborot–pedagog" ierarxiyasidan "talaba–mustaqil izlanish–kreativ yechim" tizimiga o'tkazishning nazariy asoslarini o'rganish va asoslab berish [2, 52-b.];



- an'anaviy nazorat usullarining cheklanganligini kompensatsiya qiluvchi, talabalarning tahliliy va produktiv tafakkurini rag'batlantiruvchi nostandart test turlarining (situatsion, korrelyatsion, divergent) strukturaviy-mazmuniy modelini shakllantirish ^[9, 95-b.];
- nostandart testlar yordamida talabalarning o'quv materialini o'zlashtirish darajasini Bluum taksonomiyasining yuqori (tahlil, sintez, baholash) ierarxiyasida o'lchash va ularning kognitiv faolligiga ta'sirini tahlil qilish ^[3, 72-b.];
- ishlab chiqilgan nostandart topshiriqlarni real o'quv jarayoniga integratsiya qilish orqali ularning samaradorligini statistik va qiyosiy tahlillar yordamida tasdiqlash ^[7, 42-b.].

Tadqiqotning ilmiy farazi shundan iboratki, mustaqil ishlar tarkibiga nostandart test topshiriqlarining tizimli bog'lanishi talabalarning fanni o'zlashtirishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va ularning kelajakdagi professional faoliyatida kutilmagan (nostandart) muammolarni hal qilishga tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Mustaqil ta'limni loyihalashda "talabaga yo'naltirilgan ta'lim" tamoyili. Zamonaviy oliy ta'lim paradigmalarda talabani "mustaqil izlanish orqali bilim yaratuvchi subyekt"ga aylanishi bevosita kredit-modul tizimining talabari bilan bog'liq. Bu tizimda talaba o'z o'quv yuklamasining katta qismini auditoriyadan tashqarida, mustaqil ravishda o'zlashtirishi nazarda tutilgan.

Tadqiqotchi U.Sh. Begimqulov ta'kidlaganidek, oliy ta'limni raqamlashtirish va modernizatsiya qilish sharoitida mustaqil ishlarning mazmuni "tayyor axborotni takrorlash"dan "muammoli vaziyatni tahlil qilish"ga o'tishi shart. Bu jarayonda o'qituvchining roli tyutor (yo'naltiruvchi) darajasiga ko'tariladi, nostandart testlar esa talabani ushbu avtonomiyasini tekshiruvchi asosiy filtr hisoblanadi. Mustaqil ishlar faqat referat bilan cheklanishi talabani intellektual passivligiga olib keladi. Bunga yechim sifatida interaktiv testlar (talabani mantiqiy xulosaga undovchi ochiq turdagi savollar) hamda diagnostik baholash (bilimlar darajasini emas, balki qobiliyatning o'sish dinamikasini o'lchash) qo'llanilishi zarur. Oliy ta'lim tizimida baholashning innovatsion tizimlarini joriy etish talabani mustaqil ish natijasini nafaqat "to'g'ri/noto'g'ri" shkalasida, balki uning o'zlashtirish strategiyasini qanchalik to'g'ri tanlagani asosida baholashni talab etadi ^[4, 56-b.].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida oliy ta'limda mustaqil ishlar samaradorligini oshirish maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida quyidagi uslubiy bosqichlar amalga oshirildi: komparativ (qiyosiy-tahliliy) metod, pedagogik tajriba-sinov, sotsiometrik so'rovnoma va refleksiv tahlil. Komparativ (qiyosiy-tahliliy) metod doirasida an'anaviy baholash vositalari va nostandart test topshiriqlarining didaktik imkoniyatlari o'rtasidagi differensial farqlar qiyosiy tahlil qilindi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy testlar asosan faktologik ma'lumotlarni o'zlashtirishni nazorat qilsa, nostandart testlar talabani kognitiv arxitekturasini transformatsiya qilishga yo'naltirilgan ^[9, 98-b.]. Bu jarayon Bluum taksonomiyasining quyi va yuqori bosqichlari o'rtasidagi korrelyatsiyani aniqlash imkonini berdi. Pedagogik tajriba-sinov bosqichida tanlangan akademik guruhlarda mustaqil ish moduliga nostandart test topshiriqlari (zanjirli testlar, keys-stadi elementlari) tizimli ravishda integratsiya qilindi. Tajriba-sinov ishlari davomida talabalarning o'quv materialini interpretatsiya qilish darajasi va mustaqil qaror qabul qilish tezligi monitoring qilinib, natijalar statistik tahlil etildi. Ushbu metodik yondashuv talabalarning nafaqat nazariy bilimini, balki ularning "yumshoq ko'nikmalari"ni ham rivojlantirishga xizmat qiladi ^[2, 54-b.].

Sotsiometrik so'rovnoma va refleksiv tahlil orqali talabalarning nostandart baholash metodikasiga nisbatan kognitiv va emotsional munosabatini aniqlash maqsadida anonim so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijalari talabalarda fanga nisbatan ichki motivatsiyaning ortishini hamda mustaqil ish topshiriqlariga nisbatan mas'uliyatli yondashuv shakllanganligini ko'rsatdi. Pedagogik psixologiya nuqtai nazaridan, bunday yondashuv talaba va o'qituvchi o'rtasidagi subyekt-subyekt munosabatlarini mustahkamlaydi ^[10, 115-b.].

Tadqiqotning metodologik dizayni kognitiv psixologiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalar sinteziga asoslangan bo'lib, u olingan natijalarning validligi va ishonchliligini ta'minlaydi ^[3, 75-b.].

Oliy ta'limda mustaqil ishlar samaradorligini ta'minlash maqsadida qo'llaniladigan nostandart testlar o'zining strukturaviy tuzilishiga ko'ra bir necha kognitiv-metodik turlarga bo'linadi. Strukturaviy-mantiqiy ketma-ketlikni tiklash ("zanjirli" testlar) metodikasi talabadan tarqoq holatdagi axborot elementlari o'rtasidagi ierarxik, mantiqiy yoki xronologik bog'liqlikni transformatsiya qilishni talab etadi. Ushbu jarayon nafaqat faktologik bilimlarni, balki obyektlarning funksional bog'lanish qonuniyatlarini anglash darajasini ham ko'rsatadi va algoritmlash ko'nikmasini, jarayonli tafakkurni hamda tizimli tahlil qobiliyatini rivojlantiradi ^[9, 102-b.].

"Xatoni tahrirlash" metodikasida o'quv materiali (matn, formula, sxema) tarkibiga qat'iy qonuniyatlarga zid bo'lgan mantiqiy yoki ilmiy xatolar kiritiladi, talaba esa ushbu xatolarni aniqlab, ularning to'g'ri variantini argu-

mentlar asosida isbotlab berishi lozim. Mazkur yondashuv talabning kognitiv hushyorligini oshiradi va uning materialni nafaqat bilish, balki uni tanqidiy tahlil qilish darajasini baholash imkonini beradi [2, 58-b.].

Situatsion-evristik (keys-test) modellashtirishda esa talaba faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan real professional muammo yoki murakkab vaziyat modellashtiriladi va undan vaziyatni diagnostika qilish hamda eng optimal strategik yechimni tanlash talab etiladi. Bu metodika nazariy bilimlarni real pragmatik muhitda sintez qilish ko'nikmasini shakllantiradi hamda Blum taksonomiyasidagi "qo'llash" va "tahlil" bosqichlarini qamrab olib, professional kompetentlikni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi [5, 82-b.].

Metodik tavsiyalar doirasida oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tomonidan talabalarning mustaqil ishlarini nostandart testlar asosida loyihalashda bir qator konseptual-metodik tamoyillarga amal qilish zarur. Test topshiriqlarining murakkablik darajasi talabning intellektual salohiyatini "zona priblijennogo razvitiya" (yaqin rivojlanish zonasi) doirasida faollashtirishi lozim bo'lib, asosiy urg'u Blum taksonomiyasining quyi kognitiv bosqichlaridan yuqori darajadagi – tahlil, sintez va baholash ierarxiyasiga yo'naltirilishi zarur [6, 218-b.].

Nostandart testlar talabani ma'lumotlarni shunchaki identifikatsiya qilishdan ularni konseptual tushunish va interpretatsiya qilish darajasiga olib chiqishi shart. Shu bilan birga, mustaqil ish uchun mo'ljallangan nostandart testlar talabani faqat asosiy darslik bilan cheklanib qolmasdan, qo'shimcha ilmiy adabiyotlar, elektron kutubxonalar va xalqaro ma'lumotlar bazalari (Scopus, ScienceDirect va h.k.) bilan ishlashga rag'batlantirishi kerak, bu esa axborot kompetentligini hamda muammoni hal qilish uchun zarur resurslarni mustaqil qidirib topish ko'nikmasini rivojlantiradi [7, 48-b.].

Test topshiriqlarini kreativ-interaktiv shaklda modellashtirish, ya'ni gamifikatsiya elementlarini o'z ichiga olgan zamonaviy raqamli platformalardan (Quizizz, Kahoot, LearningApps, Mentimeter) foydalanish ularning vizual va mantiqiy jozibadorligini oshirib, talabning kognitiv faolligini kuchaytiradi hamda real vaqt rejimida qayta aloqani ta'minlaydi [9, 108-b.]. Har bir nostandart test topshirig'i aniq bir professional kompetensiyani o'lchashga xizmat qilishi, testlar nafaqat natijani baholashi, balki talabning o'quv materialini o'zlashtirishdagi "mantiqiy bo'shliqlar"ni aniqlash imkonini ham berishi lozim, bu esa o'qituvchiga ta'lim trayektoriyasini korreksiya qilish uchun asos yaratadi [2, 62-b.].

TAHLIL VA NATIJALAR

Nostandart test topshiriqlarining oliy ta'lim pedagogik jarayoniga, xususan, talabalar mustaqil ishlariga integratsiya qilinishi natijasida ta'lim oluvchilarning intellektual va professional rivojlanishida quyidagi transformatsion o'zgarishlar kuzatilishi prognoz qilinadi:

- 1. Kognitiv avtonomiya va konstruktiv yondashuvning shakllanishi:** An'anaviy testlarda talaba tayyor variantlar ichidan mosini identifikatsiya qilish bilan cheklangan bo'lsa, nostandart testlar o'quv faoliyatini "javobni izlash" paradigmasidan "javobni konstruksiya qilish" paradigmasiga o'tkazadi. Bu jarayonda talaba axborotning passiv iste'molchisidan uning faol interpretatoriga aylanadi. Natijada talabalarda mustaqil bilim olish ko'nikmalari shakllanadi, bu esa ularning kelajakda kutilmagan professional muammolarni hal qilishdagi adaptiv salohiyatini oshiradi [9, 112-b.].
- 2. Baholash tizimidagi determinizm va obyektivlikning takomillashishi:** Nostandart testlar baholash jarayonidagi subyektivizm va tasodifiylik (taxmin qilish) omillarini sezilarli darajada minimallashtiradi. Bilimlarni nazorat qilishda asosiy urg'u mexanik xotira darajasiga emas, balki mantiqiy-tahliliy tafakkur va metakognitiv qobiliyatlarga qaratiladi. Bu esa baholash tizimining diagnostik funksiyasini kuchaytirib, talabning haqiqiy intellektual kompetensiyasini namoyon etadi. Bunday yondashuv talabning o'z bilimidagi real "bo'shliqlar"ni anglashga va o'z-o'zini korreksiya qilishga xizmat qiladi [10, 124-b.].
- 3. Motivatsion-qadriyatli yo'naltirilganlikning ortishi:** Nostandart topshiriqlarning kreativ va evristik xarakteri talabada intellektual qiziqishni uyg'otadi. Mustaqil ish endi zerikarli akademik majburiyat emas, balki o'z salohiyatini sinovdan o'tkazish maydoniga aylanadi. Tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatadiki, bunday metodik muhitda talabning o'quv faniga nisbatan ichki motivatsiyasi barqarorlashadi va bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan mas'uliyatli pozitsiya shakllanadi [2, 68-b.].

Xulosa qilib aytganda, kutilayotgan natijalar talabani shunchaki imtihon topshiruvchi subyektdan muammolarni hal qiluvchi va kreativ mutaxassisga aylantirishning pedagogik poydevorini yaratadi.

Oliy ta'limda talabalarning mustaqil ishlarini modellashtirish jarayonida nostandart testlar shunchaki "bilim tekshirgich" funksiyasidan chiqib, "kognitiv stimulyator" darajasiga ko'tariladi. Muhokama qilinayotgan metodikaning konseptual afzalligi shundaki, an'anaviy testlar akademik muhitda "ko'chirmachilik" va yuzaki yondashuvga zamin yaratasa, nostandart topshiriqlar talabani intellektual mehnat mahsuloti – javobni "konstruksiya qilish"ga majbur etadi.



Pedagogik psixologiya nuqtai nazaridan, nostandart testlar o'quv jarayonida faqat baholash mexanizmi emas, balki talabaning ichki intellektual resurslarini faollashtiruvchi kuchli motivatsion instrument rolini o'ynaydi [10, 128-b.]. Bu yondashuv talabada "qiyinchilikni bartaraf etishdan qoniqish hosil qilish" hissini uyg'otadi.

Zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida ushbu testlarni raqamli ekotizimlar (Moodle, Kahoot, Socrative) orqali integratsiya qilish baholashning shaffofligini ta'minlaydi va talabaning shaxsiy mas'uliyat trayektoriyasini belgilaydi [7, 52-b.]. Raqamli muhitdagi nostandart testlar talabaga o'z xatolari ustida ishlash imkoniyatini berib, metakognitiv monitoring ko'nikmalarini shakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'limda talabalar mustaqil ishini tashkil etishning metodik tizimini tadqiq etish natijasida nostandart testlarning an'anaviy pedagogik asbob-uskunalarni tubdan modernizatsiya qilish imkoniyati asoslandi. O'tkazilgan tahlillar va empirik o'rganishlar quyidagi fundamental xulosalarni shakllantirishga asos bo'ldi:

- 1. Kognitiv arxitekturaning transformatsiyasi:** Nostandart testlar talaba tafakkurini reproduktiv bosqichdan produktiv bosqichga o'tkazadi. Bu jarayonda axborotni shunchaki yodlash o'rmini uni kompleks tahlil qilish, sintezlash va noaniq vaziyatlarda qaror qabul qilish kompetensiyasi egallaydi.
- 2. Motivatsion barqarorlik:** Evristik va mantiqiy elementlar bilan boyitilgan topshiriqlar mustaqil ishning didaktik tabiatini o'zgartirib, uni zerikarli akademik yuklamadan individual ijodiy izlanishga aylantiradi. Bu esa talabalarda "umrbod ta'lim olish" ko'nikmasining poydevorini yaratadi.
- 3. Baholashning ko'p o'lchovlilik:** Mazkur metod nafaqat talabaning xotirasidagi ma'lumotlar hajmini, balki uning kreativ salohiyati, mantiqiy filtratsiyasi va nazariyani pragmatik muhitda qo'llash qobiliyatini o'lchash imkonini beradi. Bu esa baholash tizimining xolisligi va validligini ta'minlaydi.

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash joizki, nostandart testlarni oliy ta'lim darsliklari va mustaqil ish modullariga tizimli ravishda tatbiq etish nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki global mehnat bozorida raqobatbardosh, nostandart vaziyatlarda o'z yechimiga ega bo'lgan kreativ mutaxassis kadrlarni tayyorlashning strategik mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-4545884>
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006. – 45–62-bb.
3. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. – New York: Longman, 2001. – 67–75-bb.
4. Begimqulov U.Sh. Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: "Fan", 2007. – 56–62-bb.
5. Biggs, J., & Tang, C. Teaching for Quality Learning at University. – McGraw-Hill Education, 2011. – 78–85-bb.
6. Bloom, B. S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: Longmans, Green, 1956. – 201–218-bb.
7. Gulyamov S.S. Oliy ta'limda masofaviy o'qitishni tashkil etish metodikasi: o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2020. – 34–52-bb.
8. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasbiy ta'lim metodikasi. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2015. – 112–118-bb.
9. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – Toshkent: "Fan", 2006. – 89–112-bb.
10. Ziyomammedov B. Pedagogika. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2006. – 112–128-bb.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.